

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобального потепления земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operacionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



BANK TIZIMIDA RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Voxidov Oybek Rozikovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqlada tijorat banklari resurslari hozirgi holati tahlil qilingan. 2016 yilga qadar O'zbekiston bank tizimidagi moliyaviy resurslar YAIMning 35-40 foizi atrofida bo'lgan va bu ko'rsatkich iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. 2017 yildan keyingi davrda, tijorat banklari resurslarining YAIMdagi salmog'i sezilarli oshib borgan. Tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, aholi depozitlarining ko'rيلgan ko'rsatkichlarga nisbatan salmog'i oshib borishi bu o'z navbatida bank tizimiga ishonchning oshib borayotganligidan dalolat beradi. Shuningdek, tahlillar natijasiga ko'ra tijorat banklarida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning umumiyyet depozitlarda salmog'i yuqoriligi aniqlandi.

Ishda tijorat banklari resurslarida xorijiy valyutadagi resurslar holati ham o'rganildiki, O'zbekiston bank tizimida xorijiy valyutadagi depozitlarning umumiy depozitlarda salmog'i sezilarli darajada saqlanib qolmoqda.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, depozit, majburiyat, transaksion depozit, muddatli depozit.

Аннотация: В статье анализируется современное состояние ресурсов коммерческих банков в научной статье. До 2016 года финансовые ресурсы в банковской системе Узбекистана составляли около 35-40 процентов от ВВП, и этот показатель тормозил развитие экономики. В период после 2017 года доля ресурсов коммерческих банков в ВВП значительно увеличилась. По результатам анализа мы видим, что вес вкладов населения увеличивается по сравнению с наблюдаемыми показателями, что, в свою очередь, свидетельствует о росте доверия к банковской системе. Также, по результатам анализа, вклады до востребования в коммерческих банках имеют высокий вес в общей сумме депозитов.

В работе также изучено положение ресурсов в иностранной валюте в ресурсах коммерческих банков. В банковской системе Узбекистана вес депозитов в иностранной валюте в общем объеме депозитов остается значительным.

Ключевые слова: коммерческие банки, депозит, обязательство, транзакционный депозит, срочный депозит.

Abstract: The article analyzes the current state of resources of commercial banks in a scientific article. Until 2016, financial resources in the banking system of Uzbekistan were around 35-40 percent of the GDP, and this indicator hindered the development of the economy. In the period after 2017, the share of commercial banks' resources in GDP has increased significantly. From the results of the analysis, we can see that the weight of the population's deposits is increasing compared to the observed indicators, which, in turn, indicates an increase in confidence in the banking system. Also, according to the results of the analysis, demand deposits in commercial banks have a high weight in total deposits.

The situation of resources in foreign currency in the resources of commercial banks was also studied in the work. In the banking system of Uzbekistan, the weight of foreign currency deposits in total deposits remains significant.

Key words: commercial banks, deposit, liability, transaction deposit, term deposit.

KIRISH

Jahonda tijorat banklari aktivlari va passivlari sifatini oshirish bank tizimi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mijozlarning kreditlarga talabini qondirish, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlashnishing zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu esa tijorat banklarda resurslar manbaini kengaytirish va ularning barqarorligini ta'minlash hamda aktivlar hajmini oshirish orqali bir tomondan ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'lsa, ikkinsi tomondan iqtisodiy o'sishga turki berish jihatidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, AQSH Federal Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi (The Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC)) ma'lumotlariga ko'ra "AQSH bank tizimida depozitlarning umumiy hajmida talab qilib olinguncha



bo'lgan depozitlarning salmog'i 20 foizdan oshmasligi ta'minlangan". Bu o'z navbatida tijorat banklari resurslari barqarorligini ta'minlangan holda bank aktivlari daromadliligi va likvidliligi ta'minlash va pirovard natijada, tijorat banklari moliyaviy barqarorlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jahonda tijorat banklari resurslari barqarorligini ta'minlash, banklarda transformatsiya riskini va valyuta risklarini kamaytirish orqali aktiv operatsiyalarining daromadliligi va ularning risklilik darajasi o'tasidagi mutanosiblikni ta'minlash, tijorat banklarining xalqaro fond bozoriga chiqishi va mablag'larini jaib etishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, tijorat banklari resurslari tarkibida ayrim nomutanosibliklar va resurs jalb qilish manbalarining torligi xalqaro miqyosda tijorat banklarining inqirozga yuz tutishi xavfini oshiradi. Shu boisdan, xalqaro miqyosda moliya bozori dominanti sifatida tijorat banklari yuzaga chiqishini hisobga olib, ular faoliyatiga zamonaviy tizimga assoslangan innovatsion texnologiyalar joriy etish orqali moliya bozorida mijozlarni kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan globallashuv sharoitida, xalqaro miqyosda tijorat banklari resurs bazasini yanada kengaytirish va mustahkamlash borasida ilmiy tendensiyalar faollahsmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari depozitlari barqarorligini ta'minlash, ushu depozitlarga ta'sir qiluvchi omillar tahliliga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud.

Xususan, S.Andros va boshqalar depozitlar tarkibi bo'yicha bank depozit portfelining iqtisodiy va statistik tahlilini o'tkazishgan. Ular tomonidan bank omonatlarini mijoz turi, summasi, muddati va foiz stavkasi bo'yicha guruhlash algoritmi taklif etilib, tahlillar amalga oshirilgan. Har bir depozit turining foiz to'lovlarining umumiy o'sishiga ta'siri aniqlangan. Ilmiy tadqiqotlarining maqsadi depozitlar tarkibini iqtisodiy va statistik tahlil qilishdan foydalangan holda bank depozit portfelini samarali boshqarishga uslubiy yondashuvni takomillashtirishdan iborat bo'lgan. Tahlil natijalariga ko'ra, bankning optimal depozit portfelini shakllantirishga yetaricha e'tibor berilmagan. Banklarda mijozlarning qarz mablag'larini boshqarish jarayonini optimallashtirish uchun matematik apparatlardan foydalanish zarurligi ta'kidlangan. Xususan, korporativ mijozlar va jismoniy shaxslarning bankdagi omonatlari qoldiqlari, kelib tushishi hajmining o'zgarish tendensiyasini tahlil qilish, omonatlarni summalarini, foiz stavkalari va investitsiya shartlari bo'yicha guruhlash metodologiyasini takomillashtirish, va bu esa bank depozit portfelining umumiy miqdoridagi tarkibiy joylashuvni o'zgartirish imkonini beradi. Shuningdek, bankdagi depozitlar tarkibiga omillarning ta'sirini o'rganish uchun indeks faktorli tahlil metodologiyasini taklif etgan. Bunda, pul oqimlarini tahlil qilish uchun ma'lum bir davr uchun o'rtacha saqlash muddati va o'rtacha depozit qoldiqlari aniqlanadi, o'zgaruvchan tarkibli depozitdan foydalanishning o'rtacha davomiyligi indeksi hisoblanadi.

R.Han va M.Melecky inqiroz davrida bank depozitlari xarakatini o'rganishgan. Xususan, inqiroz davrida omonatchilar xavotirga tushishadi, banklardan omonatlarini qaytarib olishga urinishadi. Ularning fikricha agar bank depozitlari ko'proq diversifikatsiyalangan bo'lsa, ya'ni ko'proq jismoniy shaxslarga tegishli bo'lsa, bank omonatlarini o'zaro bog'liq holda olib qo'yishni kamaytirish mumkin. Ushbu maqola 2008 yil inqirozigacha bo'lgan bank depozitlariga kengroq kirish imkoniyati va inqiroz davridagi bank depozitlarining o'sish dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi, shu bilan birga tegishli kovariatsiyalarni nazorat qiladi. Omonatlarga kirish va bank depozitlaridan foydalanish uchun ishonchli shaxslardan foydalangan holda, mualliflar bank depozitlariga kengroq kirish banklarning depozitlarni moliyalashtirish bazasini moliyaviy tanglik davrida yanada mustahkamroq qilishini aniqlaydilar. Shunday qilib, moliyaviy barqarorlikni oshirish siyosati nafaqat makroprudensial tartibga solishga, balki bank depozitlariga kengroq kirishning moliyaviy barqarorlikka ijobji ta'sirini ham tan olishi kerak.

F.Banson va boshqalar ilmiy ishlarida ushu tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklariga yangi innovatsion xizmatlarning xususan, mobil omonatlarning Ganadagi mobil telefonlarning yuqori kirish tezligi bilan depozitlarni mobilizatsiya qilishdagi bog'liqlikni tahlil qilishgan. Ilmiy tadqiqotlaridan natijalarga erishish uchun statistik ma'lumotlar asosida qatlamlari, qulay va maqsadli usullardan foydalananilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mobil omonat mobil banking orqali depozitlarni jaib qilish usuli sifatida omonatlarni jaib qilishning an'anaviy usulidan tashqari omonatlarni jaib qilishning juda samarali vositasi ekanligi isbotlangan. Natijada, Gana va Afrika shuningdek, ushu mahsulotni joriy etgan birinchi moliyaviy institut bo'lgan First Capital Plus o'zining depozit bazasini sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo'lgan. Bu kuniga 24 soat, haftada 7 kun xizmat ko'rsatadigan hamda, mijozlarga istalgan vaqtida istalgan joyda pul o'tkazish uchun qulaylik yaratadigan sistema sifatida tanilgan. Bu First Capital Plus bank zallarida navbatlarni kamaytirgan, ayniqsa kam ta'minlanganlar o'rtasida jamg'arma madaniyatini rag'batlantirgan, depozit uchun bankka pul o'tkazish bilan bog'liq xavfni kamaytirgan va pul qo'yish uchun bankka borish vaqtini narxini kamaytirgan. Mobil tezlikni ta'minlash hamda bank kartalaridan foydalananish orqali mobil depozit yechimi qo'shimcha depozit tizimi ekanligini isbotlagan.

S. Mushtaq va D. Siddiqui ilmiy izlanishlari islom moliyasi va konvensional moliyasi asosida tashkil topgan davlatlarda foiz stavka o'zgarishining banklar depozitlariga ta'siri empirik tahlillar asosida o'rganilgan. Empirik



tahlil ARDL(Autoregressive Distributed Lag) metodi asosida olib borilgan bo'lib, bunda 23 ta islam moliyasidagi yoki aholining katta qismi musurmon bo'lgan davlatlar hamda 23 ta konvensional moliyadagi davlatning 1999-2014 yillar oraliq'idagi statistikasidan foydalangan. Olingen natijalariga ko'ra, islam moliyasi asosida qurilgan moliya bozorida bank depozitlari o'zgarishiga foiz stavkalar o'zgarishi umuman ta'mir qilmasligi aniqlangan. Aksincha, konvensional moliya asosida qurilgan moliya bozoridaagi foiz stavkalar o'zgarishi bank depozitlari hajmiga sezilarli ta'sir qilmoqda.


S.Mushtaq va D.Siddiqui real foiz stavkaning bank depozitlariga ta'sirini o'rgangan bo'lsa, Leming Lin Angliya misolida fond bozor rivojlanishining aholi depozitlari o'zgarishiga ta'siri tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko'ra fond bozorida o'sish kuzatilganda aholining banklardagi depozitlari hajmi pasaygan. Va bu bank kreditlarining qisqarishiga va bank kreditlariga muxtoj bo'lgan korxonalar ahvolini qiyinlashtirgan. Bu o'z navbatida ishlab chiqarishning qisqarishiga va ishsizlikning oshishiga olib kelgan. Qiziq tomoni shundaki, fond bozori rivojlanishi aholi farovonligiga olib kelmagan va aksincha ular moliyaviy holatini qiyinlashtirgan. Olingen natijalar shuni ko'rsamoqdaki, fond bozori rivojlanishi real iqtisodiy rivojlanishidan ilgarilib ketib, "sovun pufagi"ni hosil qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydag'i PF-5992-soni «2020–2025-yillarga mo'ljalangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida moliyaviy xizmatlar ommabopligrini oshirish uchun birinchi navbatda, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo'shimcha resurslarni jalb qilish chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqqan holda tahlilimiz bank tizimining yalpi ishlab chiqarishdagi o'rni bilan boshlamoqdamiz.



1-расм: Ўзбекистон тижорат банкларининг ялпи ишлаб чиқаришдаги ўрни (млрд.сўмда).

2016-yilga qadar O'zbekiston bank tizimidagi moliyaviy resurslar YAIMning 35-40 foizi atrofida bo'lgan va bu ko'rsatkich iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Ya'ni bankdan tashqarida pul aylanishi yuqori bo'lganligi uchun, tijorat banklarimiz ishlab chiqarishni kreditlari yetarli darajada yuqori bo'lmagan. 2017-yildan keyingi davrga nazar tashlasak, tijorat banklari resurslarining YAIMdagi salmog'i sezilarli oshib borgan.

Xususan, 2016-yilda bank resurslarining YAIMdagi ulushi 32,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich oxirgi yillarda doim oshib borgan holda 2022-yil yakuniga kelib 62,7 foizni tashkil qilgan.

Shu bilan birga tijorat banklarining jami resurslari ham katta miqdorda oshgan. Jumladan, 2016-yil oxirida tijorat banklari resurslari 84,07 trln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 556,75 trln.so'mga yetgan.


Bank tizimi resurslarining YAIMdagi salmog'i oshishi albatta butun iqtisodiyot uchun ijobjiy holat hisoblanadi. Ammo ushbu resurs qanday shakllanganligini o'rganish ham muhimdir. Biz quyida bank tizimi resurslari tarkibida uning majburiyatlari qanday o'zgarayotganligini tahlil qilamiz.



2-расм: Тижорат банклари ресурслари таркибида мажбуриятларининг улуши ўрни (млрд.сўмда).

Statistikaga e'tibor qaratgan holda aytishimiz mumkinki, oxirgi olti yil ichida bank resurslari keskin oshgan. Albatta bank resurslari tarkibida xorijiy valyutadagi resurslar ham mavjud bo'lib, 2017-yil 5-sentyabrdagi valyuta siyosatini liberalallashtirish natijasida bank resurslarining so'mdagi qiymati ham keskin oshgan. Jumladan, 2016-yilda 84,1 trln.so'mdan 2017-yilda 166,6 trln.so'mga, ya'nii ikki barovarga oshish kuzatilgan. Ammo shunga qaramasdan bank tizimida keyingi yillarda ham resurslari miqdori sizilarli oshgan.

Mamlakatimiz bank tizimidagi majburiyatlarga nazar solsak, bunda 2016 yilda 75,1 trln.so'm, 2017-yilda 145,9 trln.so'm bo'lgan. 2022-yil yakuniga ko'ra 477,2 trln.so'mga o'zgargan. Shu olti yil davomida bank tizimi majburiyatlari olti martaga oshgan. Tijorat banklari majburiyatlarining keskin oshishi nafaqat davlat ulushi mavjud banklarda balki, barcha turdag'i banklarda ham oshgan.



3-расм: Банк тизимида депозитларнинг тутган ўрни (млрд.сўмда).


Har bir davlat bank tizimida yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari muhim ahamiyat kasb etadi, shu jumladan O'zbekiston bank tizimida ham. Xususan, mamlakatimiz bank tizimida umumiylar depozitlar hajmi 2017-yil 1-yanvar holatiga 37,2 trln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'sratkich 216,7 trln. so'mni tashkil qilgan. Statistikaga e'tibor qaratgan holda aytishimiz mumkinki, oxirgi olti yilda bank tizimida majburiyatlar oshishi depozitlar oshishidan ildamlab ketgan. Xususan, bank tizimi majburiyatlari oxirgi olti yilda 535,4 foizga oshgan bo'lsa, bank tizimi depozitlari 482,9 foizga oshgan.

Aholi depozitlari nafaqat tijorat banklari depozitlari tarkibida balki butun iqtisodiyotda ahamiyati yuqori ko'sratichlardan biridir. Aholi depozitlarining iqtisodiyot uchun ahamiyatlari tomoni shundaki, agar aholi depozitlari oshib borsa, bu o'z navbatida ularning turmush darajalari yuqori ekanligidan dalolat beradi. Agar aholi depozitlari tijorat banklarida oshib borsa, bu o'z navbatida aholining bank tizimiga ishonchi yuqorilayotganligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda, biz tahlilimizning keyingi bosqichida aholi depozitlarining iqtisodiyotda va tijorat banklaridagi o'rnnini ko'rib chiqamiz.

Tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, aholi depozitlarining YAIMga nisbati 2018-yil 1-yanvar holatiga 3,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 7,1 foizni tashkil etgan holda, ko'rileyotgan davrda doimiy o'sishda bo'lgan. Shuningdek, aholi depozitlarining bank tizimi resurslaridagi salmog'i ham doimiy o'sishda bo'lib, 2018-yil 1-yanvar holatiga 7,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 11,3 foizni tashkil etgan.



Jismoniy shaxslar depozitlarining bank tizimi majburiyatlariga nisbati doimiy o'sishda bo'limgan. Xususan, aholi depozitlarining bank tizimi majburiyatlaridagi salmog'i 2018-yil 1-yanvar holatiga 8,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 13,2 foizni tashkil etgan. Shu jumladan, jismoniy shaxslar depozitlarining bank tizimidagi umumiy depozitlarga nisbati ham tebranishda bo'lgan. Xususan, aholi depozitlarining umumiy depozitlardagi salmog'i 2018-yil 1-yanvar holatiga 20,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 29,1 foizni tashkil etgan.




4-расм: Аҳоли депозитларининг иқтисодиётда ва банк тизимидаги тутган ўрни.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, aholi depozitlarining 2020 va 2021 yillarda bank tizimidagi umumiy majburiyatlarida va depozitlarigi salmog'i tebranishda bo'lganligiga sabab sifatida pandemiya holatini keltirishimiz mumkin. Aynan pandemiya holati aholining jamg'armalarini kamaytirib yubordi.

Shuningdek, aholi depozitlarining ko'rilgan ko'rsatkichlarga nisbatan salmog'i oshib borishi bu o'z navbatida bank tizimiga ishonchning oshib borayotganligidan dalolat beradi. Ammo aholi depozitlarining bank tizimi resurslaridagi, majburiyatlaridagi salmog'ining pastligi ijobji holat sifatida baholanmaydi.

Bank tizimida aholi depozitlarining tutgan o'rnnini tahlil qilgan bo'lsak, quyida yana muhim ko'rsatkichlardan biri bu depozitlarning muddatlariga ko'ra turlaridir.



5-расм: Банк тизимидаги депозитларнинг муддатига кўра турлари (млрд.сўмда).

Tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, bank tizimida talaq qitlib olinguncha depozitlar 2017-yil 1-yanvar holatiga 20,5 trln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, muddatli depozitlar esa 16,7 trln.so'mni tashkil qilgan. Usha davrda bank tizimida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog'i 58 foizni tashkil qilgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga bank tizimid depozitlari tarkibida muddatli depozitlar 124,2 trln.so'mga oshgan bo'lsa, talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar esa 92,5 trln so'mga oshgan. Ammo bank tizimidagi depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning salmog'i sezilarli kamaygan va 40 foizni tashkil qilgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bank tizimida muddatli depozitlar barqaror resurs manbai bo'lib xizmat qiladi. Aynan ushbu resurslardan tijorat banklari kreditlar ajratishi va iqtisodiyot ishlab chiqarishning oshishiga xizmat qilishi mumkin. Xalqaro ekspertlarning hamda Xalqaro valyuta fondi tavsiyasiga ko'ra tijorat banklarida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog'i 30 foizdan oshmagani ma'qul.




Bizning tahlilimizga ko'ra tijorat banklarida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning umumiyligi depozitlardagi salmog'i yuqoriligidagi qolmoqda.

Tijorat banklarida resurs bazasining barqarorligini ifodalovchi keyingi ko'rsatkichlardan biri bu bankdagi depozitlarning valyuta birliklariga ko'ra taqsimlanishidir. Davlat bank tizimida depozitlar milliy valyutada saqlanadigan bo'lsa, birinchidan milliy valyutaga talabni oshirib uning almashinuv kursini yaxshilashga xizmat qilsa, ikkinchidan milliy bank tizimining turli tashqi iqtisodi, siyosiy, yoki turli sanksiyalarga ta'sirchanligi past bo'ladi.

Ko'pchilik davlatlarda aholi milliy valyuta kursining xorijiy valyuta kursiga nisbatan o'zgarishini turli sabablarga ko'ra chet elga chiqish paytida xis qiladi. Chunki, ichki iqtisodiyotda haridlar milliy valyutada amalga oshiriladi. Tadbirkorlar esa qachonki eksport va import operatsiyalar bilan o'ug'ullansagina yoki milliy ishlab chiqarishida import xom-ashyolardan foydalansagina kursdagi o'zgarishni xis qiladi.

O'zbekiston Respublikasida 90 yillardan boshlab xorijiy valyutaning, asosan AQSH dollarining ta'siri yuqidir. Shunday ekan, tahlilimizning keyingi bosqichida tijorat banklarida depozitlar tarkibida xorijiy valyutadagi depozitlarning o'rnnini ko'rib chiqamiz.



6-расм: Банк тизимида депозитларнинг валюта бирлигига кўра турлари (млрд.сўмда).

Tahlil natijalariga ko'ra, 2017-yil 1-yanvar holatiga bank tizimidagi depozitlar tarkibida xorijiy valyutadagi depozitlar hajmining milliy valyutadagi qiymati 8,8 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, milliy vayutadagi depozitlarning hajmi esa 28,4 trln.so'mni tashkil qilgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga esa bank tizimidagi depozitlar tarkibida xorijiy valyutadagi depozitlar hajmining milliy valyutadagi qiymati olti barobarga yaqin oshgan holda 50,2 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, milliy vayutadagi depozitlarning hajmi ham olti barobarga oshgan holda 166,5 trln. so'mni tashkil qilgan.

Bank tizimida horijiy valyutadagi depozitlarning jami depozitlardagi salmog'ini ko'radigan bo'lsak, unda 2017-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 22 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ham 22 foiz atrofida bo'lmoqda. Ammo 2018-yilda xorijiy valyutadagi depozitlarning umumiyligi depozitlardagi salmog'i keskin oshgan holda 41 foizni tashkil qilgan. Bunga sabab sifatida 2017-yil 5-sentyabrdagi rasmiy keskin devalvatsiya hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-sonli farmonida bank tizimidagi tendensiyanı tanqid qilgan holda, "...aktivlar va passivlar dollarlashuvining yuqori darajasi mavjudligi, kreditlar va depozitlarning yirik kompaniyalar va iqtisodiyotning alohida sektorlarida jamlanishi banklarni valyuta va kredit xatarlariga, shuningdek, likvidlik xavfiga duchor qiladi. 2020-yil boshida xorijiy valyutada nominallashtirilgan kreditlar jami kreditlar hajmining 48 foizini, chet el valyutasidagi depozitlar va fondlar esa jami depozitlar hajmining 44 foizini tashkil etadi". Buning uchun iqtisodiyotdagi dollarlashuv darajasini kamaytirish choralar sifatida banklar aktivlari va passivlari tarkibida dollarlashuv darajasini kamaytirish bo'yicha rag'batlantiruvchi va reguliyativ chora-tadbirlar qabul qilish, shu jumladan banklarning aktivlari va majburiyatlarida xorijiy valyutaning ulushini kamaytirish uchun makroiqtisodiy shart-sharoitlar yaratish lozimligi ta'kidlangan. Xususan, xorijiy valyutadagi majburiyatlarning majburiyatlar umumiyligi hajmidagi ulushini 2025-yilga qadar 40-45 foizgacha pasaytirish maqsad sifatida belgilangan.

Tijorat banklari resurs bazasi barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri depozitlar hajmi ekanligiga xech kim shubxa bilan qaramasligi aniq. Ammo tijorat banklari faqatgina depozitlarga bog'lanib qolishlari kerak emas. Tijorat banklari o'zlarini uchun alternativ resurs manbalarini kashf qilishlari lozim. Ushbu manbalar



sifatida qimmatli qog'ozlari bozori rivojlangan davlatlarda keng rivojlangan. Mamlakatimiz tijorat banklari ham oxirgi yillarda nafaqat ichki qimmatli qog'ozlar bozorlarida balki xalqaro fond bozorlarida ham faol qatnashib kelishmoqda.

Tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, 2019-yildan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar emissiya qilish orqali hamda subordinar qarz shakllarini chiqarish orqali resurs jalb qilishi rivojlandi. Ushbu rivojlanishga turki bo'lgan omillardan biri davlat qimmatli qog'ozlar bozorining jonlanganligidir.



7-расм: Банк тизимида алтернатив ресурс жалб қилиш ҳолати (млрд.сўмда).

Statistikaga e'tibor qaratsak, 2020-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va subordinar qarzlar mos ravishda 2,9 va 4,0 trln.so'mni takil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkichlar mos ravishda 10,9 va 6,6 trln.so'mlari tashkil qilgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari bozoridagi ishtiroki sezilarli jonlangan bo'lsada, ammo umumiy resurlariga nisbati 3-5 foizni tashkil qilishi, bu sohada ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2016-yilga qadar O'zbekiston bank tizimidagi moliyaviy resurslar YAIMning 35-40 foizi atrofida bo'lgan va bu ko'rsatkich iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Ya'ni bankdan tashqarida pul aylanishi yuqori bo'lganligi uchun, tijorat banklarimiz ishlab chiqarishni kreditlari yetarli darajada yuqori bo'limgan. 2017-yildan keyingi davrga nazar tashlasak, tijorat banklari resurslarining YAIMdagi salmog'i sezilarli oshib borgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, jismoniy shaxslar depozitlarining bank tizimi majburiyatlariga nisbati doimiy o'sishda bo'limgan. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, aholi depozitlarining 2020 va 2021-yillarda bank tizimidagi umumiy majburiyatlarida va depozitlarigi salmog'i tebranishda bo'lganligiga sabab sifatida pandemiya holatini keltirishimiz mumkin. Aynan pandemiya holati aholining jamg'armalarini kamaytirib yubordi.

Shuningdek, aholi depozitlarining ko'rilgan ko'rsatkichlarga nisbatan salmog'i oshib borishi bu o'z navbatida bank tizimiga ishonchning oshib borayotganligidan dalolat beradi. Ammo, aholi depozitlarining bank tizimi resurslaridagi, majburiyatlaridagi salmog'ining pastligi ijobji holat sifatida baholanmaydi.

Bank tizimida muddatli depozitlar barqaror resurs manbai bo'lib xizmat qiladi. Aynan ushbu resurslardan tijorat banklari kreditlar ajratishi va iqtisodiyot ishlab chiqarishning oshishiga xizmat qilishi mumkin. Xalqaro ekspertlarning hamda Xalqaro valyuta fondi tavsiyasiga ko'ra tijorat banklarida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog'i 30 foizdan oshmagani ma'qul. Bizning tahlilimizga ko'ra tijorat banklarida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog'i yuqoriligidcha qolmoqda.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari bozoridagi ishtiroki sezilarli jonlangan bo'lsada, ammo umumiy resurlariga nisbati 3-5 foizni tashkil qilishi, bu sohada ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakligidan dalolat beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Andros, S., Akimova, L., & Butkevich, O. (2020). Innovations in management of banks deposit portfolio: structure of customer deposit.
2. Banson, F. A. K., Sey, E., & Sakoe, J. (2012). The Role of Mobile Deposit in Deposit Mobilization in Ghana. Asian Journal of Business and Management Sciences, 1-18.
3. Han, R., & Melecky, M. (2013). Financial inclusion for financial stability: Access to bank deposits and the growth of deposits in the global financial crisis. World bank policy research working paper, (6577).
4. Lin, L. (2020). Bank deposits and the stock market. The Review of Financial Studies, 33(6), 2622-2658.
5. Mushtaq, S., & Siddiqui, D. A. (2017). Effect of interest rate on bank deposits: Evidences from Islamic and non-Islamic economies. Future Business Journal, 3(1), 1-8.
6. www.cbu.uz Ўзбекистон Марказий банки расмий сайти
7. www.stat.uz Ўзбекистон Статистика қўмитаси расмий сайти

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.